




FE'L SO'Z TURKUMIGA OID SINONIMLARNING NUTQ USHLARIDA QO'LLANISHI

Oltiboyeva Diyora Nodirbekovna

Navoiy davlat pedagogika institute 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13338087>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-avgust 2024 yil

Ma'qullandi: 16-avgust 2024 yil

Nashr qilindi: 18-avgust 2024 yil

KEY WORDS

Sinonimiya, semantik (ideografik), ichki va tashqi sinonimiya, stilistika, so'zlashuv uslubi, ilmiy uslub, badiiy uslub, publitsistik uslub, rasmiy uslub, ko'p ma'nolilik, leksik assimilyatsiya, ekspressiv semantika.

ABSTRACT

Ushbu maqolada sinonimiya hodisasi, uning stilistik xususiyatlari bo'yicha turlari o'rganilib, asosiy mezonlari keltirilgan. "O'smoq" leksemasining ellikka yaqin leksik va kontekstual sinonim variantlari aniqlanib, ularning nutq uslublarida qo'llanishi tahlil etilgan. Tahlillar natijasida sinonimik qatordagi leksemalar nutq uslublarining qay birida faol qo'llanishi ko'rsatilgan.

Sinonimiya jahon va o'zbek tilshunosligida chuqur o'rganilgan sohalardan biri bo'lib, semantik hodisa hisoblanadi. Sinonimlar denotativ ma'nosi o'xshash yoki bir xil, konnotativ ma'nosi bilan farqlanuvchi so'zlardir. Ma'lumki, sinonimlar nutqimizda turli xil maqsadlarda qo'llaniladi, ayrim o'rinlarda, hatto, zarur hisoblanadi. Ulardan quyidagi hollarda keng foydalaniladi:

- fikrni yanada aniqroq va to'g'ri ifodalash (qiyos uchun: chet el va xorij)da;
 - hissiy-emotsional rang berishda;
 - kontekstdagi qo'shni jummalarni bir-biriga bog'lashda sinonimlardan unumli foydalaniladi¹.
- Sinonimik munosabatlar tahlili umumiy mantiqiy o'xshashlik va farqli masalalarga oid tushunchalarni yechish bilan chambarchas bog'liqdir. Quyida sinonim leksemalarning turlari, xususiyatlarini sanab o'tamiz.

Sinonimlarning ikki asosiy turi mavjud:

1. **Semantik (ideografik)**– so'zlarning semantik yaqinligi yoki ma'nolarning o'zaro muvofiq kelishi. Ular ham o'z ichida turlarga (leksik, grammatik, frazeologik, kontekstual, derivative va hokazo) bo'linadi.

2. **Stilistik**– sinonimlarning u yoki bu nutqiy uslubga xoslanishi.

Sinonimlarning yuzaga kelish manbalari ham quyidagicha:

1. **Ichki** (ko'p ma'nolilik, derivatsiya, leksikassimilyatsiya).

2. **Tashqi** – boshqa tillardan so'z o'zlashtirish natijasida².

Sinonimlikning asosiy mezonlari:

- 1) so'zlar ma'nolarining o'zaro yaqinligi va bir-biriga mos tushishi;
- 2) muayyan kontekstlarda bir-birini almashtira olishi;
- 3) bir xil so'roqqa javob bo'lishi.

Sinonimlarni turli xususiyatlari bo'yicha quyidagicha tasniflaymiz:

- 1) uslubiy xoslanishiga ko'ra;

¹https://tsuull.uz/sites/default/files/nauka_lhxiv_part_1_web._kvazisinonimlar.pdf

²<https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/download/26056/26902>

- 2) kelib chiqishiga ko'ra;
- 3) darajalanishiga ko'ra;
- 4) bo'yoqdor (emotsional)likning mavjudligiga ko'ra;
- 5) ekspressiv semantikaning mavjudligiga ko'ra;
- 6) qator a'zolari o'rtasida semantic farqlanishning mavjudligi yoki yo'qligiga ko'ra va hokazo³

Bugungi kunga kelib sinonimlar lug'at boyligimizning aksariyatini tashkil qiladi. Ayniqsa, leksik sinonimiya hodisasi stilistikada muhim o'rin tutadi. Stilistika (uslubiyat) esa tilshunoslikning muhim sohalaridan biridir. Tilshunoslikda stilistika til tizimidagi mavjud vositalardan nutqda to'g'ri foydalanishdir.

Quyida esa **“o'smoq”** umumiy semali leksik va kontekstual sinonimik qatorining u yoki bu nutqiy uslubga xoslanishiga ko'ra ya'ni, stilistikasiga ko'ra jadval asosida farqlaymiz va leksik va kontekstual sinonim leksemalarning nutqiy faol va nafaolligini kuzatamiz. Ular “o'smoq” leksemi bilan leksik, semantik, sintaktik, kontekstual hamda okkozional munosabatlar bilan o'smoq umumiy semali leksemalar uyasini shakllantiradi.

	Leksemalar	So'zlashuv uslubi	Ilmiy uslub	Badiiy uslub	Publitsistik uslub	Rasmiy uslub
1	O'smoq(neytral)	+	+	+	+	+
2	Ulg'aymoq	+	-	+	-	-
3	Rivojlanmoq	+	-	-	+	-
4	Katta bo'lmoq	+	+	+	-	-
5	Yuksalmoq	-	-	-	+	-
6	Taraqqiy etmoq	-	-	-	+	-
7	Oshmoq	+	+	+	-	-
8	Ko'tarilmoq	+	-	+	-	+
9	Mustahkamlanmoq	-	-	-	+	+
10	Yoyilmoq	+	+	+	+	-
11	Porlamoq	-	-	+	-	-
12	Seroblashmoq	-	-	+	-	-
13	Avjlanmoq	+	-	+	+	-
14	Kuchaymoq	+	+	+	+	-
15	Ortmoq	-	+	-	+	+
16	Kamolotga erishmoq	-	-	+	+	-
17	Takomillashmoq	-	-	-	+	-
18	Yaxshilanmoq	+	-	-	+	-
19	O'zib ketmoq	-	+	+	+	+
20	Orqada qoldirmoq	+	-	+	+	-
21	Harakatlanmoq	+	+	+	+	+
22	Baland ko'tarila bormoq	-	-	+	+	-
23	Yuqori tomon o'rlamoq	-	-	+	-	-
24	Unmoq	-	+	+	-	-
25	Ilgarilamoq	+	-	-	+	-
26	Jadallashmoq	-	-	-	+	-
27	Ildamlamoq	-	-	+	+	-
28	Tezlashmoq	+	+	+	+	+

³https://www.researchgate.net/publication/379754263_O'zbek_tilidagi_sinonimlar_tasnifi

29	Oyoqlanmoq	-	-	+	-	-
30	Oldinlamoq	+	+	+	-	-
31	Tili bir qarich	+	-	+	-	-
32	Tomir yoymoq	-	+	+	-	-
33	Qanot yoymoq	+	-	+	-	-
34	Quloch yoymoq	-	-	+	-	-
35	Cho'zilmoq	+	+	-	-	-
36	Targalmoq	+	-	+	+	+
37	Sochilmoq	+	-	+	-	-
38	Kuchli tus olmoq	-	-	+	+	-
39	Keskinlashmoq	+	+	+	+	-
40	Muvaffaqiyat qozonmoq	-	-	-	+	+
41	Ravnaq topmoq	-	-	-	+	-
42	Gullab-yashnamoq	-	-	+	+	-
43	Yetilmoq	+	+	+	-	-
44	Unumli bo'lmoq	-	+	-	+	-
45	Namoyon bo'lmoq	-	+	-	+	+
46	Pishib yetmoq	+	-	+	-	-
47	Erishmoq	+	+	+	+	+
48	Intilmoq	+	-	+	+	-
49	Barqurmoq	-	-	+	-	-

Yuqoridagi jadvaldan shuni ko'rishimiz mumkinki, "o'smoq", "harakatlanmoq", "tezlashmoq", "erishmoq" leksemalari barcha uslublarda qo'llanadi va jonli muloqotda faolligi bilan ajralib turadi. "Porlamoq", "seroblashmoq", "kamolotga erishmoq", "baland ko'tarila bormoq", "oyoqlanmoq", "quloch yoymoq", "barq urmoq" kabi so'zlar jonli muloqotda nafaol bo'lib, ko'pincha badiiy adabiyotlarda uchramiz.

Xulosa qilib aytganda, bir leksemaning denotativ va konnotativ ma'nolari asosida leksik hamda kontekstual leksemalar shakllanadi. Ular nutqimizning ravon bo'lishi va so'zlagan so'zlarimizning takrorlanmasligi uchun so'z boyligimiz ko'p bo'lishi va sinonim so'zlarni qo'llashimizga bog'liq. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan umumnazariy mulohazalardan kelib chiqib, sinonimlarning har birini o'z o'rnida ishlatish ma'qul. Zero, sinonimlar shunchaki hashamdorlik emas, tilimizning chinakam boyligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sayfullayeva R.R, Mengliyev B.R, Boqiyeva G.H, Qurbonova M.M, Yunusova Z.Q, Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiyati: - Toshkent: Fan vateknologiya, 2009. - B.414
2. Jumaniyozov R. Sinonimlarning rifimasalasi, O'zbek tili va adabiyoti, 1970.1- son, 5-bet.
3. Azim Hojiyev. O'zbek tili sinonimlarining tashkil qilinishi, "O'qituvchi" nashriyoti, 1974.
4. https://tsuull.uz/sites/default/files/nauka_lhxiv_part_1_web_kvazisinonimlar.pdf
5. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/download/26056/26902>
6. https://www.researchgate.net/publication/379754263_O'zbek_tilidagi_sinonimlar